Emro Science and Education
International open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz
OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 4 (2024) · “Milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish va yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlarini t... DOI: 10.5281/zenodo.24321153

ta´minlashning ustivor yo´nalishlari´ mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

balki milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga hissa qo‘shadi. Ushbu yo‘nalishda texnologiyalarni keng qo‘llash va barqarorlik tamoyillariga asoslanish kelajakdagi muvaffaqiyat garovidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Bender, W. N. (2012). Project-Based Learning: Differentiating Instruction for the 21st Century. Thousand Oaks, CA: Corwin Press.
2. Hockly, N. (2018). "Adopting EdTech in ELT." English Language Teaching Journal, 72(2), 199-208.
3. Milton, J. (2020). "Virtual Reality and Immersive Language Learning." Journal of Educational Technology, 35(2), 123-134.
4. Staker, H., & Horn, M. B. (2012). "Classifying K-12 Blended Learning." Innosight Institute.
5. UNESCO. (2020). "Global Competencies for an Inclusive and Sustainable World."

Warschauer, M. (2000). "The Digital Divide in Language Education." Technology in Language Learning.

TA'LIM TIZIMIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO‘LLASH ISTIQBOLLARI

Aminov Shavkatjon Sobir o‘g‘li
Toshkent amaliy fanlar universiteti Bank ishi kafedrasi o‘qituvchi
shavkataminov1@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola raqamli iqtisodiyotdagi xavflar, muammolar va ularni bartaraf etishga qaratilgan hamda qishloq xo‘jaligida raqamli iqtisodiyotni qo‘llashning muvaffaqiyati to‘g‘risida.

Kalit so‘zlar: Raqamli iqtisodiyot, axborot texnologiyalari, kibr hujum, qishloq xo‘jaligi

Аннотация: В данной статье рассматриваются риски, вызовы и решения в цифровой экономике, и успех цифровой экономики в сельском хозяйстве. В целях поддержки цифровой экономики планируется связать международные стандарты финансовой отчетности с практикой. По результатам исследования были сделаны выводы и рекомендации.

Ключевые слова: цифровая экономика, информационные технологии, сельское хозяйство, развитие, международные стандарты финансовой отчетности.

Annotation: This article describes the risks, challenges and solutions in the digital economy, as well as the success of the digital economy in agriculture. In order to support the digital economy, it is planned to link international financial reporting standards with practice. Conclusions and recommendations were made based on the results of the research.

Keywords: Digital economy, information technology, agriculture, development, international financial reporting standards.

Kirish. Hozirgi kunda yurtimizda “raqamli iqtisodiyot” degan jumlaga ko‘p duch kelyabmiz. Buning ma’nosini chuqurroq anglashimiz uchun uning nazariy jihatdan ta’rifi bilan tanishsak. Raqamli iqtisodiyot - bu xo‘jalik faoliyatini yuritish jarayoni bo‘lib, bunda ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatishdagi asosiy omil raqamlar ko‘rinshidagi ma'lumotlar hisoblanib, katta hajmdagi axborotlarni qayta ishlash va shu qayta ishlash

Published: 23.12.2024
Cite this article: Aminov Shavkatjon Sobir o‘g‘li (2024). Ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarni qo‘llash istiqbollari. Emro Science and Education, 1(4). https://doi.org/10.5281/zenodo.24321153
© 2024 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

natijasini analiz qilish yordamida har xil turdagi ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish, texnologiyalar, qurilmalar, saqlash, mahsulotlarni yetkazib berishda oldingi tizimdan samaraliroq yechimlar tadbiq qilishdir.

Boshqacha qilib aytgancha, raqamli iqtisodiyot bu onlayn xizmatlar ko‘rsatish, elektron to‘lovlarni amalga oshirish, internet savdo va boshqa turdagi sohalarni raqamli kompyuter texnologiyalarini rivojlanishi bilan bog‘langan faoliyatdir.

Hozirgi kunni innovatsion texnologiyalar davri desak xato bo‘lmaydi. Qaysi sohaga qaramasak axborot texnologiyalarga muhtojlikni sezamiz. Chunki ularning mavjudligi ishning unumini samarasini beradi.

Raqamli iqtisodiyot hamda axborot texnologiyalari bir biri bilan chambarchars bog‘liq. Chunki axborot texnologiyalari raqamli iqtisodiyot negizidir.

Albatta, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi, zamonaviy texnologiyalarning hayotimizga tadbiq etilishi har bir inson hayotida ko‘plab ijobiy imkoniyatlar berishi mumkin.

Raqamli texnologiyalar rivojlanishi ortidan inson, unga kerakli xizmatdan tezroq foydalanishi, internet orqali o‘ziga kerakli mahsulotlarni arzon sotib olish bilan ko‘plab pul mablag‘larini tejashi mumkin.

Masalan biron bir kitobning elektron ko‘rinishda sotib olish Sizga, shu kitobni chop etilgan ko‘rinishini sotib olish ancha arzonga tushishi mumkin. Yoki bo‘lmasa oddiy iste'molchi o‘zi ham tadbirkor bo‘lishi, uyidan chiqmagan holda onlayn savdo-sotiq bilan shug‘ullanishi mumkin.

Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishini boshqa afzalliklari quyidagicha bo‘lishi mumkin:

- ishlab chiqarishda mehnat samadorligini oshishi;
- kompaniyalarning raqobatbardoshligini o‘sishi;
- ishlab chiqarishdagi harajatlarning kamayishi;
- yangi ish o‘rinlari yaratilinishi;
- yangi zamonaviy kasblar paydo bo‘lishi;
- kambag‘allikni yengish va ijtimoiy tengisizlikni yuqolishi.

Hamma narsani yaxshi tomoni bo‘lganidek raqamli iqtisodiyotning ham kamchiligi bor. Bular:

-Kiber hujum xavfi;

-ishsizlikni oshishi kabilardir.

"Raqamli" davlatlar bugungi kunda Norvegiya, Shvetsiya va Shvetsariya hisoblanishadi. Raqamli iqtisodiyot rivojlangan 10 ta davlatlar qatoriga AQSH, Buyuk Britaniya, Daniya, Finlandiya, Singapur, Janubiy Koreya va Gonkong kiradi.

Savol tug‘ilishi mumkin raqamli iqtisodiyotning qishloq xo‘jaligiga nima aloqasi bor deb. Masalan axborot texnologiyalarini dexqonchilikda qo‘llasak bizga foyda bermaydimi?

Tahlil va natijalar Masalan sarf xarajatlarni, olingan foydani, ko‘rilgan zararlarni o‘zida ifoda etadigan bir baza bo‘lsa ish unumi, topgan daromadimiz oshishiga xizmat qilmaydimi? Agar barcha ma’lumotlarni bir joyga yi’ga oladigan baza bo‘lsa qidirilayotgan raqamlar tez topiladi. Olingan daromad to‘g‘ri hisoblanadi. Ko‘rilgan foyda va zararlardan kelib chiqib ishlash texnologiyasiga o‘zgartirishlar kiritiladi yoki yangilanadi.

Dunyo tajribasini o‘rganish natijasida shu narsa aniq bo‘ldiki, raqamli iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda raqamli iqtisodiyotda davlat(hukumat) bozor "o‘yin" qoidalarini o‘yinning barcha ishtirokchilari uchun belgilaydi va bunda davlatning eng muhim vazifasi sifatida o‘yin ishtirokchilari uchun bir xil, teng huquqli va imkoniyatli

sharoit yaratib berish hisoblanadi. Ya'ni, bozorda katta kompaniya bo‘ladimi yoki kichik biznes, ular teng huquqli hisoblanadi. Ularga bir xil imkoniyatlar beriladi.

Davlat qoidalarga amal qilinishi va oxir oqibatda oddiy iste'molchi sifatli, zamonaviy xizmat yoki mahsulot olishi ta'minlanadi. Demak, raqamli iqtisodiyot rivojlanishi uchun davlat hamma uchun teng sharoit yaratib berishi, iloji boricha bozor qoidalari, qonunlar, shartnomalar shaffof bo‘lishi, qonunlar bozor talabidan kelib chiqqan holda(ya'ni bozordagi rivojlanish tendensiyalarini oldindan aniqlay olishi va kerakli normativ hujjatlarni qabul qilishi) o‘yin ishtirokchilari uchun erkinlik berishi zarur.

Ta’kidlash joizki, yurtimizda raqamli iqtisodiyot rivojlanishi sustroq. Bunga ko‘p omillar misol bo‘la oladi. Ulardan biri kadrlarning malakasidir. Yurtimizda imkoniyat mavjud lekn undan foydalanish uchun malakali mutaxassislar yetishmayabti. Yana bir omil internet tezligi pastligi hamda narxdagi muammolar.

Haligacha yurtimizning barcha joylarida internet bilan muammolar bog‘liq. Aksariyat qishloq xo‘jaligi esa yurtimizning chet joylarida tashkil etilgan. Axborot texnologiyalari xavfsizligi yaxshi emasligi ham bir omildir. Hozirgi kunda hakerlarning yoki qo‘shtirnoq ichidagi firibgarlarning hujumi ko‘oayib ketgan. Bu esa raqamli iqtisodiyotning eng katta xavflaridan biridir.

Demak raqamli iqtisodiyotni qo‘llash uchun yuqorida aytilgan omilarni yechimini topsak qo‘yilgan maqsadlarga erishish uchun yo‘l ochiladi. Masalan: internet tezligi uchun qurilmalarni yaxshilasak, kadrlarni tayyorlash uchun chet ellik malakali IT mutaxassislari bilan shartnoma tuzib ularni o‘qitish tizimini joriy etsak, axborot xavfsizligi uchun qo‘shimcha himoyani kuchaytirsak maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Shuni yodda tutishimiz joizki, raqamli iqtisodiyot rivojlanishi uchun davlat hamma uchun teng sharoit yaratib berishi, iloji boricha bozor qoidalari, qonunlar, shartnomalar shaffof bo‘lishi, qonunlar bozor talabidan kelib chiqqan holda(ya'ni bozordagi rivojlanish tendensiyalarini oldindan aniqlay olishi va kerakli normativ hujjatlarni qabul qilishi) o‘yin ishtirokchilari uchun erkinlik berishi zarur.

Shuni ta’kidlash kerakki, indeksatsiya aktivlar qiymatining o‘zgarishi emas, u faqat aktivlar qiymati bo‘yicha ma’lumotlarning solishtirilishini ta’minlaydi. Indekslash natijasida foyda (zarar) mavjud, ammo bu foyda (zarar) aktivlar qiymatining o‘zgarishi bilan bogliq emas, balki kompaniyaning balans tuzilishiga nisbatan siyosatining natijasidir.

Indekslashdan farqli o‘laroq, aktivlarni qayta baholash ushbu aktivlarning bahosidagi o‘zgarishlar indeksini yoki ularning adolatli qiymatini qo‘llash orqali ularning tarixiy qiymatining pul qiymatini balans sanasidagi pul shartlariga moslashtirishdan iborat. Bu hozirgi qiymatga asoslangan aktivlarni baholashga yondashuv. Shuni ta’kidlaymizki, xalqaro standartlarga muvofiq, aktivlarni adolatli qiymat bo‘yicha baholashga asoslangan yondashuvni qo‘llash natijasida yuzaga keladigan qayta baholash summasi bevosita kapitalda aks ettirilishi kerak.

Hozirgi kunda jahonda raqamli iqtisodiyotni tartibga solishning nazariy asoslari raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi jadal sur’atlar bilan amalga oshmoqda. Raqamli iqtisodiyotni tartibga solishning nazariy asoslari va raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi iste’molchilar talabini to‘liq qondirish va iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarida mehnat unumdorligini oshirish imkonini beradi. Elektron tijorat tovarlar va xizmatlar realizatsiyasini tezlashtirish asosida inqirozlarni oldini olish imkonini beradi. Bunda virtual to‘lovlar tizimi tovar aylanishini tezlashtiradi. Internet reklama esa o‘z navbatida reklama auditoriyasini butun dunyo miqyosida kengaytirish imkonini beradi.

“Raqamli O‘zbekiston – 2030” dasturini ishlab chiqish vazifasi qo‘yilib, unga ko‘ra O‘zbekistonni raqamli transformatsiyalashish jarayonini jadallashtirish maqsadi belgilab olindi. Axborot texnologiyalarining rivojlanishi bilan bugungi kunda ish bilan

bandlikni ta’minlashning yangi yo‘nalishlari paydo bo‘lmoqda. Ish beruvchilar ixtiyoriy ravishda va xohishiga ko‘ra xodimlarni ishga yollash imkoniga ega bo‘lmoqdalar va geografik joylashuvi hamda vaqtdagi farq ahamiyatga ega emas. Xodimlar axborot texnologiyalaridan foydalangan holda masofadan turib o‘z vazifalarini bajarishga qodir bo‘lib, uydan tashqariga chiqmasdan, har qanday vaqtda belgilangan vazifani bajarish imkoniga ega bo‘lishmoqda.

Raqamli iqtisodiyot – bu ishlab chiqarish kompleksi, inson uchun hayot va qulaylikni ta’minlaydigan mahsulot va xizmatlarni yaratadigan ishlab chiqarish tizimi bo‘lib, u yerda ma’lum bir kiber-jismoniy (kiberfizicheskaya) tizim paydo bo‘ladi. Fikrimizcha, raqamli iqtisodiyot bu ishlab chiqarish kompleksi insonlar uchun qulayliklarni ta’minlaydigan mahsulot va xizmatlarni yaratadigan virtual muhit bo‘lib, raqamli texnologiyalardan foydalangan holda iqtisodiy ishlab chiqarish tizimidir. Raqamli iqtisodiyotga bo‘lgan qiziqish jamiyat va iqtisodiyotda ro‘y bergan jiddiy o‘zgarishlar tufayli sezilarli darajada o‘sdi. Zamonaviy texnologiyalar va platformalar mijozlar, hamkorlar va davlat tashkilotlari bilan shaxsiy muloqotni minimallashtirish hisobiga korxonalar va jismoniy shaxslarga xarajatlarni qisqartirishga yordam berdi, shuningdek, o‘zaro muloqotni yanada tez va oson yo‘lga qo‘yishga imkoniyat yaratdi.

Raqamli xizmatlar an’anaviy turga qaraganda qog‘ozbozlik, rasmiyatchilikning yo‘qligi, vaqtni tejash kabi bir qator afzalliklarga ega. Masalan, davlat xizmatlarini raqamli ko‘rinishda olsangiz, sizga belgilangan to‘lovning 10 foizi miqdorida chegirma taqdim etiladi. Bularning barchasi mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotga faol o‘tilayotganining belgisi. Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning yana bir omili — kiberxavfsizlikni ta’minlashdir. Karantin sharoitida global tarmoqda koronavirusdan saqlanish bo‘yicha ko‘rsatmalar yorlig‘i ostida dasturiy tizimlarni ishdan chiqaruvchi viruslar tarqatish holatlari uchradi.

Xorijda dori-darmonni onlayn sotish va yetkazib berishni va’da qilib, oldindan pullarni hisob raqamiga o‘tkazishni so‘rab, sodda odamlarni aldab ketayotgan moliyaviy firibgarlar soxta onlayn-do‘konlar, veb-saytlar, ijtimoiy tarmoqlardagi akkauntlar va elektron pochta manzillaridan foydalanishdi. Bu ham axborot xavfsizligini ta’minlash zaruratini yana bir bor tasdiqlaydi. Raqamlashuv va kiberxavfsizlik tushunchalari doimo yonma-yon keladi. Chunki barcha tizim va jarayonlarni raqamlashtirish bilan birga, ularning texnik jihatdan mukammal va bexato ishlashini, xavfsizligini ta’minlash muhim hisoblanadi. Bugun uydan chiqmasdan to‘lovlarni amalga oshirish, hech bir muammosiz masofaviy ta’lim olish, dunyoning yirik kutubxonalaridan foydalanish va hatto ishlash mumkin.

Xulosa va takliflar O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyotga kirish uchun 2021-yil 15-iyunda Vazirlar Maxkamasi tomonidan qabul qilingan “Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatning rivojlanish holatini reyting baholash tizimini yanada takomillashtirish” deb nomlangan qarorni misol qilishimiz mumkin. Shu o‘rinda reyting baholashga ta’rif bersak. **Reyting baholash** -reyting ko‘rsatkichlari va indikatorlari yordamida raqamli rivojlanish holatini baholash orqali tashkilotlar hamda hududlarni eng yuqori natijadan eng past natijagacha saralangan ro‘yxatdagi o‘rnini belgilash Shu o‘rinda yurtimizda “Raqamli O‘zbekiston-2030” strategiyasi ham amalga oshirilmoqda. Unga muvofiq iqtisodiyot tarmoqlari va hududlarini raqamlashtirish, davlat axborot tizimlari va elektron xizmatlarni joriy etish, shuningdek, raqamli texnologiyalardan keng foydalanishni ta’minlash bo‘yicha xalq ta’limi, davlat xizmatlari, sud, moliya va bank tizimini takomillashtirish muhim masalalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. “Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatning rivojlanish holatini reyting baholash tizimini yanada takomillashtirish” Vazirlar Mahkamasining 373-son Qarori. 15.06.2021 y.
2. Umarov, I. Y. (2020). Innovative activity of the food industry of Uzbekistan.
Экономика и социум, 7, 74.
3. Umarov, I. Y., & Yusupova, M. Features of digital innovation management in
business. In World science: problems and innovations collection of articles of the XX-XI
4. International Scientific and Practical Conference: at (Vol. 4).
5. Alimova, G. A. (2020). Foreign Experience In Indexing The Amount Of Pensions.
6. The American Journal of Social Science and Education Innovations, 2(11), 472-477.
7. Абдуллаев, М. Г. (2017). Опыт развитых стран в развитии малого бизнеса и частного предпринимательства, и его особенности в Узбекистане. Научная дискуссия: инновации в современном мире, (11), 37-4
8. Maxmudova, N. J. (2020). Theoretical foundations of risk management in large
corporate structures. ISJ Theoretical & Applied Science, 06 (86), 83-88.
www.wikipedia.uz internet sayti.

ПЕРСПЕКТИВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ИННОВАЦИОННЫХ ПОДХОДОВ В РАЗВИТИИ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ

Олимова Нодира Хамракуловна
Ферганский государственный университет к.э.н., проф.
olimova_nh@mail.ru
Джурабоева Диёра Музаффар кизи
магистр, НИУ ТИИИМСХ

Аннотация. Инвестиции - необходимое условие осуществления инноваций. Без инноваций капитальные вложения могут оказаться неэффективными и даже вредными, продлевая будущее производство неконкурентоспособных продуктов. Более того, без инноваций инвестиции часто оказываются невозможными, поскольку заменяемое устаревшее оборудование уже не выпускается, его не найти на рынке. Поэтому основным источником инноваций, в том числе и радикальных, являются инвестиции в основной капитал. С помощью инвестиций осуществляется межпродуктовое и межотраслевое перераспределение амортизации, прибыли и привлеченных средств для осуществления инноваций. Исходя из вышесказанного, в